

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI
INTERFAOL USULLAR ORQALI O'RGATISH**

Vaseyeva Farizabonu

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti

Ingliz tili II fakulteti MBT yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini samarali, an'anaviy bo'lмагan usullarda o'rgatish haqida gap boradi va ba'zi bir interfaol usullarga misollar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Interfaol usullar, texnologik usullar, pedagog, Saymon says, proektor, zamonaviy texnologiyalar.

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan – kunga ortib bormoqda. Shu sababdan ota-onalar ham farzandlari kichik yoshlardanoq xorijiy tilni o'rganishni boshlashlarini, hech bo'lмагanda o'sha tildan oz bo'lsa ham ko'nikma hosil qilishlarini istaydilar va albatta bolalarni chet tiliga qiziqtirib, yangi informatsiyalarni interfaol usullar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'rgatish yoki aksincha oddiy grammatik qoidalarni shunchaki zeriktirib yozdirish ham biz pedagoglarning qo'llimizda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlayotgan paytimizda, biz albatta ularni hali ham o'yin-kulgularga monand, hali o'qish, yozish, mifik maydonlatiga endigina kirib kelgan yosh bolalar ekanliklarini unutib qo'ymasligimiz lozim. Xalqimizda "Yoshlikda olingan ilm, toshga o'yilgan naqsh."^[1] deganlaridek, boshlang'ich sinf bolalari juda ko'p informatsiyani ham o'zlashtirishlari mumkin, agarda ularga to'g'ri usullar o'rgatilsa.

Tasavvur qilaylik, bola bir joyda o'tirib zerikkan, yozishdan charchagan, balkim yaxshi o'zlashtira olmayotganligi uchun boshqa o'qituvchilaridan dakki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

eshitgani mumkin. Shunday hollarda siz ham darsingizni oddiygina pan'anaviy tarzda o'tsangiz, katta ehtimol bilan ko'p o'quvchilaringiz sizni darsingizni yaxshi o'zlashtirolmaydi, siz berayotgan vazifalarni bajarsa ham mavzuni tezda yodidan chiqarib yuborishi mumkin.

Bu paytda eng samarali usullar albatta zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, turli xil o'yinlar o'ynatish, xullas har xil interfaol usullardan foydalanish.

- Inglizcha qo'shiqlar bilan raqsga tushish;
- Multfilmlar (chet tilida);
- O'yin materiallari orqali (koptok, stikkerlar, kartochkalar va h.k.) lug'at takrorlash;
- Saymon says o'yinlari;
- Turli xil musoboqalar va boshqalar

Bunday o'yinlarnig turlari hozirda juda ko'paygan sinfdagi bolalarning ishtiyogi, qiziqlariga moslab o'zingiz ham har xil mashg'ulotlar o'ylab chiqarishingiz mumkin.

Agarda sinfxonangiz zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lsa, nur ustiga a'llo nur bo'lar edi. Chunki siz televizor, proektor, printer, kalonka yoki oddiygina kompyuter va smartfonlar bilan ham juda ko'p qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazsangiz bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan hozirgi zamon bolalari uchun qiziqarliroq bo'ladi va samaraliroq natijalar ko'rsatadi. Chunki hozirgi zamon bolalari texnika taraqqiyoti davrida ulg'aymoqdalar.

Xulosa qilib aytsak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, ularni darsga qiziqtiradigan usullar bilan o'qitish yo'llarini tanlasagiz, o'quvchilaringiz eng faol, bilimli o'quvchilar bo'lib yetishishlariga ko'mak bo'ladi va bu bilan siz albatta vatanimiz ravnaqiga o'z hissangizni qo'shgan bo'lasiz.

1. O'zbek xalq maqoli

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://phstechjdpu.uz>
3. Zubaydova. N.N. Vocabulary task//. “Kasbiy fanlar metodikasi”,2016.
4. Zubaydova. N.N. The teaching of English for specific purposes//. “Scientific researchers for development future International conference Proceedings”,2019.